

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING IJTIMOIV -IQTISODIV MEXANIZMI

Nizamova Shoira Isamiddinovna

Toshkent Perfekt universiteti
“Gumanitar fanlar” kafedrası
dotsenti., i.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot davomida sifat menejmenti tamoyillari, PDCA modeli va iyerarxik tahlil usuli asosida boshqaruv jarayonlari o'rganildi. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar aniqlanib, resurslardan samarali foydalanish darajasi baholandi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyot qiyoslandi. Natijada ta'lim sifati monitoringi, moliyalashtirish mexanizmlari va manfaatdor tomonlar ishtiroki o'zaro bog'liq tizim sifatida shakllangani ko'rsatildi. Olingan natijalar oliy ta'limda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun amaliy asos yaratdi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, boshqaruv mexanizmi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, PDCA, oliy ta'lim, monitoring.

Аннотация

В статье был проведён системный анализ социально-экономического механизма управления качеством образования в высших учебных заведениях. В ходе исследования были изучены управленческие процессы на основе принципов менеджмента качества, модели PDCA и метода иерархического анализа. Были выявлены экономические и социальные факторы, влияющие на качество образования, а также оценена эффективность использования ресурсов. Проведено сопоставление международного опыта и национальной практики. Результаты показали, что мониторинг качества образования, механизмы финансирования и участие заинтересованных сторон формируют взаимосвязанную систему. Полученные выводы послужили основой для повышения эффективности управления в системе высшего образования.

Ключевые слова: качество образования, механизм управления, социально-экономические факторы, PDCA, высшее образование, мониторинг.

Abstract

The article examined the socio-economic mechanism of quality management in higher education institutions through a systematic approach. Management processes were analyzed using quality management principles, the PDCA model, and the analytic hierarchy method. Economic and social factors influencing education quality were identified, and resource efficiency was evaluated. International experience and national practice were compared. The findings showed that quality monitoring, financing mechanisms, and stakeholder participation formed an integrated system. The results provided a practical basis for improving management efficiency in higher education institutions.

Keywords: education quality, management mechanism, socio-economic factors, PDCA, higher education, monitoring.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Ta'lim sifati mamlakatning inson kapitali darajasi, mehnat bozori samaradorligi hamda innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning barqarorligi iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylandi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim sifati faqat o'quv jarayonining natijalari bilan emas, balki boshqaruv mexanizmlari, resurslardan foydalanish darajasi, innovatsion yondashuvlar va manfaatdor tomonlar ishtiroki bilan ham belgilanadi. Ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi aynan shu omillarni yagona tizimga birlashtirib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm moliyalashtirish, monitoring, baholash, rag'batlantirish va hamkorlik kabi elementlar orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifatini boshqarishda tizimli yondashuv, sifat menejmenti tamoyillari va uzluksiz takomillashtirish mexanizmlaridan foydalanish yuqori natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish boshqaruv samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va xalqaro integratsiyani kengaytirishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonlarda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarning roli ortib bormoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini ilmiy asosda tahlil qilish, uning tarkibiy elementlarini aniqlash va amaliy samaradorligini baholashdan iborat.


ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot jarayonida ta'lim sifatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tamoyillariga ko'ra, E. Demingning 14 tamoyillari tizimli o'rganildi. Ushbu tamoyil sifat menejmentining asosi bo'lib, mahsulot sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv falsafasidir.

Tadqiqotga doir ilmiy manbalardan ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish doirasida T.Saatining tadqiqotlarida iyerarxiyalar tahlili metodi[2], A.V.Tebenkinning ilmiy asarlarida boshqaruv jarayonini tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish[3] to'g'risida nazariy fikrlari o'rganildi. A.N.Boevaning oliy ta'lim muassasalarida o'qitish faoliyatining samaradorligini baholash va yaxshilash yo'llari tadqiq qilingan[4]. Oliy ta'lim muassasasining samaradorlik darajasi uning faoliyat natijalarini har tomonlama baholashga imkon beradigan ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Ta'lim sifatini boshqarishga doir tadqiqotlarni o'rganishda boshqaruv jarayonida ta'lim sifatini boshqarish bilan bog'liq modellarning ham tahlili

amalga oshirildi. PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli qo‘llash orqali boshqaruv, resurslarni ta’minlash va natijalarni tahlil qilindi. Bundan tashqari ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi akkreditatsiya va baholash modelini o‘rganishda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kompleks baholash sifatning resurslar, jarayon va natijalar bo‘yicha mosligini o‘rganilib, oliy ta’lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik e’tiborga olinib, mutaxassislarni tayyorlashni prognozlash, amaliy mashg‘ulotlar bilan aniqlanadi.

Demak, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan mukammal tizimdir.



1-rasm. PDCA modelning tarkibiy tuzilishi¹

Ushbu mexanizm sifatni to‘liq boshqarish (TQM) tamoyillarini, xalqaro standartlar va milliy islohotlarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu model ijtimoiy jihat ta’limni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib unda professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘qitish sharoitlarini yaxshilash hamda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanishini o‘z ichiga oladi.

Demak, ta’lim sifatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmi - bu ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, resurslarni optimal taqsimlash, ta’lim xizmatlarini iste’molchilar uchun samarali qilib ta’minlash maqsadida ishlatiladigan usullar, tamoyillar va mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari grantlar va ta’limni moliyalashtirish dasturlari, resurslarni taqsimlash va ta’lim jarayonlari uchun zaruriy vositalar bilan ta’minlashni tashkil etadi. Turli shakldagi oliy ta’lim muassasalarida davlat, xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, yangi ta’lim metodikalari va texnologiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish oliy ta’limni boshqarishni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga kiradi. Ushbu iqtisodiy mexanizm ta’lim sifatini yaxshilash va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun integratsiya qilinadi.

AQShda aralash moliyalashtiriladi bunda shtat byudjetlari, xususiy xayriya mablag‘lari, ta’lim uchun kreditlar va sovrindor talabalar uchun stipendiyalarga sarflanadi. Oliy ta’limning rivojlanishiga xizmat qiluvchi bozor mexanizmlari raqobatni rag‘batlantiradi. Bitiruvchilarning iqtisodiy samarasi innovatsion loyihalarni

¹ Muallif ishlanmasi

amalgaga oshirishi bilan baholanadi. Agar O‘zbekistondagi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy iqtisodiy boshqarishga qaratilgan ishlarning olib borilishida ta’lim olishni qulaylashtirish uchun davlat yordamiga tayaniladi. Bu tengsizlikni kamaytirsa-da, moslashuvchanlikni cheklaydi. AQSh esa innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida bozor mexanizmlaridan foydalanadi, ammo bu ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishni kuchaytiradi, bu ta’lim kreditlari bo‘yicha qarzdorlikning oshib ketishiga olib keladi.

1-jadval.

AQSh va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini boshqarishning qiyosiy tahlili¹

AQSh	O‘zbekiston	Farq
Tizimlarning tuzilishi va tashkil etilishi		
Oliy ta’lim muassasalari (OTM) mustaqilligiga e’tibor qaratilgan markazlashmagan tizimdir. AQSh Ta’lim vazirligi akkreditatsiya orqali umumiy standartlarni belgilaydi. OTMlar o‘quv dasturlarini mustaqil boshqaradi. Tizim talabaga yo‘naltirilgan.	Oliy ta’lim tizimi markazlashgan, Ta’lim sifatini nazorat qilinadi, HEMIS axborot tizimi ishlaydi. Tizim tuzilmasi iyerarxik bo‘lib, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar obro‘-e’tiborga hurmat ko‘rsatishga asoslangan.	O‘zbekistonda talabalarning mehnat bozoriga moslashishi uchun kredit-modul tizimini joriy etilgan, biroq tizim hali to‘liq ijroda emas. AQShda esa kurslarni tanlashda ko‘proq erkinlik beriladi, raqobat tufayli nufuzli universitetlarga kirish uchun kuchli saralash o‘tkaziladi.
Moliyalashtirish va iqtisodiy mexanizmlar		
Aralash moliyalashtiriladi. Bozor mexanizmlari raqobatni rag‘batlantiradi. Bitiruvchilarning yuqori daromadlilik ko‘rsatkichiga e’tibor katta.	Davlat tomonidan moliyalashtiriladi, xususiy manbalarning ahamiyati ortmoqda, tadqiqotlar tijoratlashtirilmogda, resurslar yetishmovchiligi mavjud.	O‘zbekiston ta’lim olishni hammabop qilish uchun davlat yordamiga tayanadi, bu tengsizlikni kamaytirsa-da, moslashuvchanlikni cheklaydi. AQSh esa innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanadi, ammo bu ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishni kuchaytiradi.
Sifatni ta’minlash mexanizmlari		
Sifat nazorati markazlashtirilmagan. Akkreditatsiya mustaqil agentliklar tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv tamoyillari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.	Ta’lim sifat nazorati mavjud. Akkreditatsiya davlat tomonidan amalga oshiriladi.	Har ikkala tizim ham jarayonli yondashuvdan foydalanadi. O‘zbekiston nazariy baholashga, QSh esa amaliy baholashni (tanqidiy fikrlash, loyihalar) afzal ko‘radi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlar arzon ta’lim va mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlash orqali ijtimoiy ishsizlik darajasini pasaytiradi. Tizimda olib borilayotgan islohotlar harakatchanlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, fan, ta’lim ishlab chiqarish integratsiyalashadi.


Ta’lim sifati tushunchasining kelib chiqishi tarixi bilan shug‘ullangan olimlardan V.I.Zvonnikov[5] aynan ta’lim sifati atamasi o‘tmishda ishlatilmagan bo‘lsada, shu

¹ Muallif ishlanmasi

ma'noni anglatuvchi ta'riflar bo'lganligini ta'kidlaydi. Jumladan, pedagog olimlardan N.K.Alimova[6], E.E.Semchenko[7], S.V.Abdulina[8], N.Bagutdinova[9] va V.F.Efimovlar[10] o'z tadqiqotlarida «ta'lim sifati» tushunchasi shakllanishining dastlabki bosqichi qadimgi dunyo davlatlari mavjud bo'lgan davrga borib taqaladi, degan fikrni ilgari surganlar.

Demak, oliy ta'limda, ayniqsa, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, institutlar-aro hamkorlik, mobillik sxemalari, birgalikdagi o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va tadqiqotlar bilan bog'liq muhim masalalarda Yevropa an'alariga va tizimlariga asoslanadi. Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarning erkin harakatini samarali amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish maqsadida talabalarni ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va amaliy mashg'ulotlar bilan ta'minlash hamda o'qituvchilar, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlar uchun esa natijalarni tan olish va boshqa universitetlarda tadqiqot, o'qitish va amaliyotga sarflangan vaqtni hisobga olinish imkoniyatini yaratish nazarda tutiladi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayonini optimallashtirish va bozor sharoitlariga moslashishga qaratilgan.



2-rasm. Oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish¹

¹ Muallif ishlanmasi

Bu mexanizmlar davlat, jamoat, biznes va ijtimoiy institutlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarga asoslanadi, taʼlim sifatini oshirish va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Davlat-xususiy sheriklik bunda asosiy qismi davlat, biznes tuzilmalari va ijtimoiy institutlar oʻrtasidagi faoliyat hisoblanadi. Bu mexanizm oliy taʼlim sohasini boshqarishda jamoat manfaatlarini hisobga olib, taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunga davlat tomonidan moliyalashtirish va xususiy sektorning investitsiyalari orqali OTMlarni rivojlantirish, ijtimoiy institutlarning taʼlim jarayonida ishtirok etishi kiradi. Moliyaviy-ijtimoiy holatda davlat tomonidan subsidiyalar va grantlar sonining oshirish nazarda tutiladi hamda ijtimoiy qatlamlar uchun imtiyozlar ajratiladi.

Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish barqaror iqtisodiy oʻsishi, inson kapitalini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhimdir. Ushbu mexanizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar ilmiy-tadqiqotlar, xalqaro tajriba va milliy konsepsiyalarga asoslanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va qiyosiy-tahliliy yondashuvlarga asoslandi. Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini oʻrganishda ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Sifat menejmenti doirasida Deming tamoyillari va PDCA modeli asosiy metod sifatida qoʻllanildi. T. Saatining iyerarxik tahlil usuli orqali qaror qabul qilish jarayonlari baholandi. Statistik maʼlumotlar umumlashtirildi, koʻrsatkichlar oʻzaro taqqoslandi va natijalar tizimlashtirildi. Shuningdek, soʻrovnoma va ekspert baholari yordamida amaliy holat oʻrganildi. Olingan maʼlumotlar asosida taʼlim sifati samaradorligiga taʼsir etuvchi omillar aniqlanib, ularning oʻzaro bogʻliqligi tahlil qilindi hamda amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi taʼlim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks boshqaruv vositalari majmuasi sifatida namoyon boʻldi. Tahlillar ushbu mexanizm moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish va taʼlim natijalarini doimiy monitoring qilish orqali shakllanishini koʻrsatdi. Taʼlim sifati nafaqat oʻquv jarayonining natijalari, balki boshqaruv tizimi, infratuzilma, kadrlar salohiyati va tashqi muhit bilan oʻzaro aloqadorlik darajasi orqali ham belgilanadi.

Iqtisodiy diagnostika va strategik boshqaruv jarayonida T. Saatining iyerarxik tahlil usuli muhim metod sifatida qoʻllanilib, ustuvor yoʻnalishlarni aniqlash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini berdi. A.V. Tebenkin yondashuvlari asosida boshqaruv jarayonlari tizimli baholanib, ichki va tashqi omillarning taʼsiri “kirish” resurslari va “chiqish” natijalari oʻrtasidagi nisbat orqali tahlil qilindi. Ushbu yondashuv taʼlim sifati samaradorligini aniq mezonlar asosida baholash imkonini yaratdi. Benchmarking usuli orqali mavjud holat ilgʻor xalqaro tajribalar bilan taqqoslanib, rivojlanish uchun zarur boʻlgan yoʻnalishlar aniqlashtirildi.

Tahlil natijalari ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish ta'lim sifatini boshqarishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Birinchidan, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zarurligi aniqlandi. "Universitet 3.0" konsepsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish ilmiy tadqiqot natijalarini iqtisodiyotga tezkor joriy etish imkonini kengaytiradi. Ushbu yondashuv doirasida startap markazlari, innovatsion inkubatorlar va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish ilmiy g'oyalarni tijoratlashtirish jarayonini jadallashtiradi hamda ilmiy faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim tizimida ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikni kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida belgilandi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeli bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga moslashuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Nogironligi bo'lgan talabalar uchun moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ta'lim sifatini boshqarish tizimini kompleks modernizatsiya qilish zarurligi aniqlanib, bu jarayon tashkiliy, pedagogik, ilmiy va iqtisodiy komponentlarni qamrab olishi lozimligi asoslandi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va sifat monitoringini kuchaytirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. "Spin-off" va "spin-out" korxonalarini tashkil etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmi kengayadi, bu esa oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligi uning barcha tarkibiy elementlari o'rtasidagi uyg'unlik darajasiga bog'liq. Kompleks yondashuv asosida boshqaruvni tashkil etish oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi murakkab, o'zaro bog'liq elementlardan iborat tizim ekanligini ko'rsatdi. Ta'lim sifati boshqaruvi moliyalashtirish, monitoring, baholash, resurslardan foydalanish, kadrlar salohiyati va manfaatdor tomonlar ishtiroki orqali shakllanishi aniqlandi. Sifat menejmenti tamoyillari, xususan PDCA modeli va tizimli yondashuvdan foydalanish boshqaruv jarayonining izchilligini ta'minlagani va natijadorlikni oshirgani kuzatildi. Shuningdek, ta'lim sifati iqtisodiy samaradorlik, bitiruvchilarning raqobatbardoshligi va mehnat bozori talablariga moslashuv darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligi tasdiqlandi.

Tahlillar oliy ta'lim tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning kengayishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi hamda innovatsion faoliyatning rivojlanishi sifat boshqaruviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Xalqaro tajriba bilan qiyoslash natijalari esa boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda mustaqillik, moslashuvchanlik va amaliy yo'naltirilgan baholash usullarining ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqladi.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi. Birinchidan, ta'lim sifatini boshqarishda strategik rejalashtirish va natijaga yo'naltirilgan monitoring tizimini kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida grantlar, investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, ta'lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish uchun ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikni tizimli asosda rivojlantirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, ta'lim sifatini baholashda nazariy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarni o'lchash mexanizmlarini joriy etish talab etiladi. Beshinchidan, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv vositalarini keng qo'llash orqali ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirish mumkin.

Mazkur xulosa va takliflar oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga, uning barqarorligini ta'minlashga hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-may PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7513052>

2. Саати Т. Л. Принятие решений при зависимостях и обратных связях. Аналитические сети. - М.: ЛКИ, 2008.

3. Тебенкин А.В. Методы принятия управленческих решений. Учебник для бакалавров. М.:Юрайт, 2013. 572 с.

4. Боева А.Н. Оценка и пути повышения эффективности образовательной деятельности государственных высших учебных заведений: Автореф. Дис. ... канд. экон. наук по. - Владивосток, 2011. -23с.

5. Звонников В.И. Педагогические измерения в управлении качеством обучения: Дис. д-ра пед. наук: Ростов-на-Дону, 2006. - 405 с.

6. Алимова Н.К. Развлекательное образование: монография/Н.К. Алимова, Е.Е. Семченко, С.В. Абдулина, Е.М. Ефимова. - Киров: ПРИП ФГБОУ ВПО «ВятГУ», 2013 - 247 с.

7. Семченко Е.Е. Единый госэкзамен в 2003 году // Высшее образование сегодня. М. - 2003, 9- С. 22-24.

8. Абдулина С.В. Мониторинг качества профессиональной подготовки Текст. / С.В. Абдулина // Высшее образование в России. 1998. — № 3. -С. 35-39.

9. Багутдинова Н. Управление качеством образования Стандарты и качество. — 2002. — № 9.

10. Ефимов В.Ф. Компетентность как новое качество личности школьника // Начальная школа. 2012. № 2. С. 11-17.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**